



**IQLIM O'ZGARISHI BO'YICHA SUD ISHLARI VA
ULARNING ATROF-MUHIT SIYOSATINI
MUSTAHKAMLASHDAGI ROLI: XALQARO AMALIYOT VA
O'ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR**

Ilmiy rahbar: Kamilov Oybek Hamidjonovich

Green Universiteti "Ekologik fanlar va barqaror rivojlantirish"
kafedrası katta o'qituvchisi, y.f.f.d., PhD

Mirzaturg'unova Nigoraxon Mirzaanvar qizi

O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20268906>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-may 2026 yil
Ma'qullandi: 5-may 2026 yil
Nashr qilindi: 18-may 2026 yil

KEY WORDS

iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlari, ekologik boshqaruv, Parij bitimi, yashil iqtisodiyot, O'zbekiston ekologik huquqi, xalqaro ekologik huquq, suv resurslari.

ABSTRACT

Iqlim o'zgarishlari bugungi kunda faqat ekologik muammo bo'ib qolmay, huquqiy jihatdan ham davlatlar oldiga yangi vazifalar qo'ymoqda. So'nggi o'n yilliklarda ko'plab mamlakatlarda hukumatlar va yirik kompaniyalar iqlim majburiyatlarini bajarmagan holatlarda sudga berilmoqda. Bu hodisa "climate change litigation" deb atalib, davlat iqlim siyosatini o'zgartirishning yangi vositasiga aylandi. Peel va Osofsky (2015) ta'riflaganidek, iqlimiy adolat — bu "davlatlar va korporatsiyalarni iqlim majburiyatlariga javobgar qilishning huquqiy mexanizmi" (p. 12). Mazkur mexanizm so'nggi o'n yilda xalqaro miqyosda keng tarqalib, ekologik boshqaruvni mustahkamlashning samarali vositasiga aylandi. Mazkur maqolada ushbu institut xalqaro huquq va ekologik boshqaruv nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Xususan, Niderlandiya, AQSh va Pokistondagi uchta yirik sud ishi — Urgenda, Juliana va Leghari ishlari — tahlil qilinadi hamda ularning davlat siyosatiga ta'siri baholanadi. Markaziy Osiyoda, jumladan O'zbekistonda mavjud ekologik muammolar — suv taqchilligi, iqlim o'zgarishlarining qishloq xo'jaligiga ta'siri — va bu muammolarni hal qilishda huquqiy mexanizmlarning roli o'rganiladi. O'zbekistonning Parij bitimi bo'yicha majburiyatlari va milliy qonunchilikdagi bo'shliqlar aniqlanadi. Maqola oxirida O'zbekistonda iqlim bo'yicha sud ishlari amaliyotini joriy etish uchun tavsiyalar beriladi.

1. Kirish

Iqlim o'zgarishi muammosi hozirgi kunda nafaqat ekologik, balki huquqiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan ham global ahamiyat kasb etib bormoqda. Atmosferadagi issiqxona gazlari konsentratsiyasining ortib borishi, global haroratning ko'tarilishi, tabiat ofatlarining tez-tez ro'y berishi — bularning barchasi davlatlarni o'z iqlim siyosatini qayta ko'rib chiqishga majbur etmoqda. Shu jarayonda yangi huquqiy hodisa — iqlim o'zgarishi borasida majburiyatlarni bajarishga doir masalalar bo'yicha sudga murojaat qilish (climate change litigation) amaliyoti shakllanib, xalqaro miqyosda keng tarqalmoqda.

“Climate litigation” deb ataluvchi bu yangi huquqiy mexanizm davlatlar va yirik korporatsiyalar iqlim majburiyatlarini bajarmaganida yoki yetarlicha amalga oshirmaganida sudga chiqarib, huquqiy himoya izlash imkoniyatini yaratadi. 2000-yillardan boshlab dunyoning turli mamlakatlarida minglab bunday ish ko'rilgan bo'ib, ular davlat siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston ham iqlim o'zgarishlari oqibatlaridan eng ko'p ziyon ko'rayotgan mintaqa davlatlar qatoriga kiradi. Tog' muzliklarining erishi, qurg'oqchilik va cho'lanish jarayonlari, suv resurslari tanqisligi— bu muammolar O'zbekiston uchun nafaqat ekologik, balki huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammo hamdir. Shu sababli mazkur tadqiqotda O'zbekistonda iqlim bo'yicha sud ishlari institutini rivojlantirish imkoniyatlari va zaruriyati ko'rib chiqiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi xalqaro amaliyotdagi iqlim bo'yicha sud ishlari tajribasini tahlil qilish, uning ekologik boshqaruvga ta'sirini baholash va O'zbekiston uchun ushbu mexanizmni joriy etishning huquqiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy huquqiy tahlil, xalqaro sud amaliyotini o'rganish va me'yoriy-huquqiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

2. “Climate Change Litigation” tushunchasi va nazariy asoslari

Climate change litigation — iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq masalalar yuzasidan sudlarda da'vo qo'zg'atish amaliyotini anglatadi. Ushbu da'volar odatda uch asosiy yo'nalishda olib boriladi: (1) davlatlarni iqlim majburiyatlarini bajarishga majbur etish; (2) korporatsiyalarning issiqxona gazi emissiyasi uchun javobgarlikka tortish; (3) iqlim o'zgarishlari siyosatini to'siqlash yoki kechiktirish harakatlariga qarshi kurashish.

Nazariy jihatdan iqlim bo'yicha sud ishlari bir necha huquqiy asosga tayanishi mumkin. Birinchidan, davlatning atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha konstitutsiyaviy va qonuniy majburiyatlari. Ikkinchidan, xalqaro ekologik huquq normalari va ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar — xususan, BMT Iqlim o'zgarishlari bo'yicha doiraviy konvensiyasi (UNFCCC, 1992) va uning asosida qabul qilingan Parij bitimi (2015). Shuni ta'kidlash lozimki, Kioto protokoli (1997) ikkinchi majburiyat davri 2020-yilda yakunlanib, amaliy kuchini yo'qotgan bo'lsa-da, u xalqaro iqlim o'zgarish huquqining rivojlanishida muhim bosqich bo'ib xizmat qildi. Uchinchidan, inson huquqlari huquqi: hayot, sog'liq, munosib yashash muhitiga bo'lgan huquqlar. To'rtinchidan, fuqarolik javobgarligi tamoyillari, jumladan zararni qoplash majburiyati va h.k.

Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi (IPCC, 2021) ma'lumotlariga ko'ra, sanoat davridan beri global o'rtacha harorat 1,09°C ga ko'tarilgan (A.1.2, p. 5). Agar hozirgi tendentsiya davom etsa, 2100-yilga qadar bu ko'rsatkich 2,4–3,5°C ga yetishi mumkin (IPCC, 2022). Ushbu ilmiy ma'lumotlar sudlarda muhim dalil sifatida ishlatilmoqda.

Kolumbiya universiteti qoshidagi Iqlim o'zgarishi huquqi bo'yicha Sabin markazi va BMT Atrof-muhit dasturi (United Nations Environment Programme) (2023) hisobotiga ko'ra, 2022-yil oxirigacha dunyoda jami 2,180 ta iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishi qo'zg'atilgan. Bu

ko'rsatkich 2017-yildagi 884 ta ishga nisbatan ikki baravardan oshiq bo'ib, iqlim bo'yicha sud ishlari amaliyoti jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Huquqiy doktrina nuqtai nazaridan, iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlari uchta asosiy kontseptual asosga qurilgan. Birinchisi — ehtiyotkorlik tamoyili (precautionary principle): agar ma'lum bir faoliyat odamlar sog'lig'iga yoki atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, ba'zi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq oqibatlarini aniqlash va isbotlash jarayoni murakkabligi to'liq ilmiy aniqlik bilan isbotlanmagan taqdirda ham ehtiyot choralarini ko'rilishi lozim. Ikkinchisi — ifloslashtiruvchi to'laydi (polluter pays) tamoyili: atrof-muhitga zarar yetkazgan shaxs yoki tashkilot bu zararni qoplashga majbur. Uchinchisi — zarar yetkazmaslik (no harm) tamoyili: har bir davlat o'z hududida, boshqa davlatlar atrof-muhitiga zarar yetkazmasligi uchun choralar ko'rish shart. Umuman olganda, tamoyillar orasida, shuningdek, iqlim adolati, avlodlararo iqlimiy adolat kabilar ham muhim rol o'ynaydi.

Iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlari shuningdek huquqiy ijodkorlikning yangi shakli sifatida ham ko'rib chiqiladi. Sudlar ko'pincha mavjud qonunchilikni iqlim voqeliklariga moslashtirib talqin qiladi. Bir qator olimlar sudlarning iqlim siyosatini shakllantirishdagi faolroq rolini ijobiy hodisa sifatida baholaydi (Setzer & Higham, 2021; Peel & Osofsky, 2015).

3. Xalqaro sud amaliyotida "Climate litigation"

3.1. Urgenda Jamg'armasi — Niderlandiya davlatiga qarshi (Urgenda Foundation v. Netherlands) ishi

Urgenda jamg'armasi — Niderlandiya davlatiga qarshi (2015) ishi iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlari tarixidagi dastlabki va eng muhim g'alaba sifatida e'tirof etiladi. Niderlandiyalik iqlim va barqaror rivojlanish jamg'armasi Urgenda 886 nafar niderlandiyalik fuqaro nomidan Niderlandiya hukumatini 2020-yilga qadar CO2 chiqindilarini 1990-yil darajasiga nisbatan kamida 25% ga kamaytirish majburiyatini bajarishga majbur etish talabi bilan sudga murojaat qildi. Gaaga tuman sudi birinchi instansiyada da'vogar foydasiga qaror chiqardi. Gaaga apellyatsiya sudi (2018) va Niderlandiya Oliy Sudi (2019) ham ushbu qarorni qo'lab-quvvatladi (Hoge Raad, 2019).

Sudning asosiy argumenti shundan iborat ediki, Niderlandiya hukumati o'z fuqarolarining hayot huquqi va oilaviy hayotga hurmat qilish huquqini — Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyasining 2- va 8-moddalarini — ta'minlash uchun yetarlicha chora ko'rmagan. Sud fuqarolik huquqidagi ehtiyot chorasi ko'rish majburiyatiga (duty of care) asoslanib, iqlim o'zgarishlaridan fuqarolarni himoya qilish davlatning huquqiy majburiyati ekanligini tasdiqladi (Hoge Raad, 2019).

Bu ish bir necha sabablarga ko'ra tarixiy ahamiyatga ega. Birinchidan, davlat iqlim siyosati uchun sudga jalb qilingan va da'vo qondirilgan birinchi ishdir. Ikkinchidan, inson huquqlari asosida ekologik majburiyat belgilangan. Uchinchidan, bu qaror butun Yevropa bo'ylab o'xshash da'volar to'qinini keltirib chiqardi — Germaniya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Fransiyada ham shu yo'nalishda ishlar ko'rib chiqildi.

3.2. Juliana — Amerika Qo'shma Shtatlariga qarshi (Juliana v. United States) ishi

2015-yilda AQSh federal sudida 21 nafar yosh fuqaro federal hukumatga qarshi da'vo qo'zg'atdi. Ushbu ish Juliana v. United States nomi bilan mashhur bo'di. Da'vogarlar ikki asosiy argumentga tayandi.

Birinchiidan, federal hukumat ongli ravishda neft, gaz va ko'mir sanoatini qo'lab-quvvatlagan, bu esa atmosferaga issiqxona gazlarining to'planib borishiga olib kelgan va natijada da'vogarlarning Konstitutsiya bilan kafolatlangan yashash, ozodlik va xavfsiz kelajakka bo'gan huquqlari buzilgan.

Ikkinchiidan, da'vogarlar umumiy ishonch doktrinasiga (public trust doctrine) tayandilar. Bu doktrinaga ko'ra havo, suv va boshqa tabiiy resurslar biror shaxs yoki kompaniyaning mulki emas — ular butun xalqqa, shu jumladan kelajak avlodlarga ham tegishli umumiy boylikdir. Davlat bu boyliklarni saqlash va avaylab boshqarish majburiyatini o'z zimmasiga olgan. Da'vogarlar esa hukumat o'z siyosati orqali atmosferani shikastlab, bu majburiyatni bajarmagan, deb hisobladi.

Oregon shtatidagi AQSh federal tuman sudi 2016-yilda ishni ko'rishga ruxsat berdi — ushbu ruhsat yuridik jihatdan muhim natijadir, chunki federal hukumat ishni dastlabki bosqichdayoq to'xtatishga bir necha bor urinib ko'rdi. AQSh 9-okrug Federal Apellyatsiya sudi 2021-yilda ishni qayta ko'rib chiqish uchun quyi sudga qaytardi. Juliana ishi AQSh konstitutsion huquqida ekologik huquqlarning mustahkamlanishiga doir dolzarb munozaralarni davom ettirmoqda (Kelsey, 2020; Burns, 2021).

Juliana ishi huquqiy jihatdan ahamiyatli, chunki u davlatning nafaqat harakat qilmaslik (inaction), balki faol ravishda zararli siyosatni amalga oshirishi uchun ham javobgar bo'ishi mumkinligini ko'rsatdi.

3.3. Leghari — Pokiston davlatiga qarshi (Leghari v. Pakistan) ishi

Leghari — Pokiston davlatiga qarshi ishi (2015) rivojlanayotgan davlatlar kontekstida iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlari uchun qo'lanma yuridik hodisa hisoblanadi. Lahor Oliy sudi fermer Asghar Legharining da'vosini ko'rib chiqib, Pokiston hukumatini 2012-yilgi Milliy Iqlim O'zgarishi Siyosatini bajarmaslikda aybdor deb topdi va Iqlim O'zgarishi Komissiyasini tuzishni buyurdi.

Sudning muhim xizmati shundan iboratki, u davlatning iqlim majburiyatini salbiy (taqiqlovchi) emas, balki ijobiy (faol amalga oshiruvchi) vazifa sifatida belgiladi. Sud iqlim o'zgarishi masalalarini asosiy huquqlarni amalga oshirish doirasiga kiritdi va huquqiy himoyani kengaytirdi. Bu qaror rivojlanayotgan mamlakatlar uchun o'z hukumatlarini iqlim majburiyatlariga qaytarish borasida muhim huquqiy instrument bo'ib xizmat qildi (Khan, 2016; Nachmany et al., 2017).

Leghari ishi yana bir sabab bilan muhim: unda sudning monitoring roli kuchaytirildi. Sud nafaqat qaror qabul qildi, balki davlat tomonidan uning bajarilishini nazorat qilish uchun alohida mexanizm — "Climate Tribe" guruhini tuzishni ham buyurdi. Climate Tribe — hukumat vakillaridan, mustaqil ekspertlardan va fuqarolik jamiyati vakillaridan tashkil topgan nazorat organi bo'ib, u sudning iqlim bo'yicha qarorlarini davlat idoralari tomonidan amalda bajarilishini muntazam kuzatib borish uchun tuzildi. Bu yondashuv sudning iqlim siyosatini davlat boshqaruviga integratsiyalashtirishdagi faol rolini ko'rsatadi — ya'ni sud qaror chiqarib to'xtab qolmay, uning ijrosini ham nazorat ostiga oldi.

4. Iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlarining atrof-muhit siyosati boshqaruvga ta'siri

Atrof-muhit siyosati (environmental governance) deganda davlat va nodavlat institutlarning ekologiyani muhofaza qilish, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish va ekologik qonunlarni amalga oshirish bo'yicha o'zaro munosabatlar tizimi tushuniladi (Lemos & Agrawal, 2006). Iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlari bu tizimga bir necha yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi.

Birinchi yo'nalish — qonunchilikni takomillashtirish. Sudlar iqlim bo'yicha da'volarni ko'rib chiqqan turib, ko'pincha mavjud qonunchilikdagi kamchilik va bo'shliqlarni aniqlaydi. Bu esa qonun chiqaruvchi organlarni tegishli o'zgarishlar kiritishga undaydi. Germaniyada Federal Konstitutsion Sud 2021-yilda Federal Iqlim O'zgarishlari Himoya Qonunining bir qismini konstitutsiyaga zid deb topdi. Sud Bundestag — federal parlamentni 2022-yilga qadar qonunga o'zgartirish kiritib, 2050-yilga mo'jallangan iqlim maqsadlarini kuchaytirishi lozimligini qaror qildi (BVerfG, 2021).

Ikkinchi yo'nalish — davlat mas'uliyatini kuchaytirish. Iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlari davlatlarni iqlim majburiyatlariga javobgar qilish mexanizmini ta'minlaydi. An'anaviy siyosiy vositalar — saylovlar, parlament nazorati, jamoatchilik bosimi — ba'zan yetarli bo'lmaydi. Sudlar esa huquqiy majburiyatlarni aniq belgilab, ularning bajarilishini ta'minlashda yanada mustaqil mexanizm sifatida ishlaydi (Peel & Osofsky, 2018).

Uchinchi yo'nalish — korporativ mas'uliyat. Bir qator iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlari neft-gaz kompaniyalari va atmosferaga katta hajmda issiqxona gazini chiqaradigan boshqa yirik sanoat korxonalarining zararli faoliyatlariga qarshi qaratilgan. Shell Oil ishi (2021, Niderlandiya) bunga yorqin misoldir: sud Shell kompaniyasini 2030-yilga qadar issiqxona gaz chiqarishini 45% ga qisqartirishga majbur qildi. Bu qaror korporatsiyalarning iqlim javobgarligi bo'yicha yangi standartlar o'rnatdi (van Asselt & Brewer, 2021).

To'rtinchi yo'nalish — xalqaro me'yorlarni milliy huquqqa tatbiq etish. Iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlari ko'pincha Parij bitimi, UNFCCC va boshqa xalqaro shartnomalarning milliy sudlarda amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bu orqali xalqaro ekologik huquq normalarining real ta'sirchanligi oshadi va ular rasmiy ratifikatsiyadan keyingina emas, balki amalda ham qo'llaniladigan standartlarga aylanadi.

Beshinchi yo'nalish — jamoat ishtiroki va ekologik savodxonlikni rivojlantirish. Sudga murojaat qilish huquqi fuqarolarga, shu jumladan kelajak avlod manfaatlarini ifodalovchi tashkilotlarga ham boshqaruv jarayonlariga bevosita ta'sir qilish imkonini beradi. Bu ekologik boshqaruvga nisbatan aholi ishonchini mustahkamlaydi va davlat siyosatida jamoat nazorati mexanizmlarini joriy etiladi.

Biroq iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlarining ayrim cheklovlari ham mavjud. Sudlarning ixtisoslashuvi, dalillarning ilmiy murakkabligi, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq oqibatlarini aniqlash va isbotlash jarayoni murakkabligi va ijroni ta'minlash muammolari — bularning barchasi iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlari mexanizmining samaradorligini cheklaydi (Wewerinke-Singh & Yu, 2019). Shuningdek, ba'zi tadqiqotchilar sudlarning an'anaviy siyosat sohalarida haddan tashqari faol rol o'ynashi hokimiyatlar bo'linishi tamoyiliga zidligi haqida ogohlantiradi (Wilensky, 2015).

5. Markaziy Osiyoda atrof-muhit siyosati muammolari

Markaziy Osiyo — iqlim o'zgarishi ta'sirlariga nisbatan eng zaif mintaqalardan biridir. O'rta Osiyo Hidrometeorologik Muvofiqlashtirish Markazi ma'lumotlariga ko'ra, 1950-yildan beri mintaqadagi o'rtacha yillik harorat 0,5°C dan ortiq ko'tarilgan, bu global me'yordan sezilarli darajada yuqori (CAIAG, 2019). Shuningdek, tog' muzliklari sathi 1960-yildan beri 30–35% ga kamaygan.

Markaziy Osiyo davlatlarining aksariyati foydali qazilmalar va tabiiy resurslarga asoslangan iqtisodiyotni saqlab qolmoqda, shuningdek binobarin yashil iqtisodiyotga o'tish choralari ham ko'rilgan.

Uchinchidan, mintaqada transsohaviy ekologik muammolar mavjud: Amudaryo va Sirdaryo suv havzalarini boshqarish, birgalikdagi hududlardagi ifloslanish muammolari, Orol dengizi

inqirozining barcha mamlakatlarga ta'siri va boshqalar. Ushbu muammolarni hal qilish uchun regional hamkorlik zarur.

Iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlari kontekstida Markaziy Osiyo davlatlarida qo'shimcha sud ishlari uchun zarur bo'lgan mustaqil sud tizimini rivojlanishini undaydi.

Shunga qaramay, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda ekologik huquq sohasidagi institutsional rivojlanish kuzatilmogda. Qozog'iston 2021-yilda yangilangan Ekologiya Kodeksini qabul qildi va emissiya kvotalarini savdo qilish tizimini (ETS) joriy etdi. Qirg'iziston 2019-yilda yangi Ekologik Kodeksini qabul qildi. Biroq bu mamlakatlarda iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlari amaliyoti hali keng tarqalmagan.

6. O'zbekistonda ekologik muammolar va huquqiy asoslar

6.1. Suv resurslari muammosi

O'zbekiston suvga bo'lgan ehtiyoj yuqori darajadagi davlatlardan biri bo'ib, butun suv ehtiyojining taxminan 80% sug'orma dehqonchilikka sarflanadi. Tojikiston va Qirg'iziston asosiy daryo havzalarining yuqori qismida joylashgan, O'zbekiston suv taqsimoti masalasida mazkur mamlakatlar bilan hamkorlikni olib bormogda. World Bank (2021) hisobotiga ko'ra, 2050-yilga qadar Amudaryo havzasidagi suv oqimi 10–15% ga kamayishi mumkin.

6.2. Ekologik huquqlar

O'zbekiston Konstitutsiyasining 50-moddasi fuqarolarning sog'lom muhitda yashash huquqini mustahkamlaydi. 2023-yilda qabul qilingan yangi Konstitutsiyadagi o'zgartirishlar bilan ekologik huquqlar qamrovi kengaytirildi. Xususan, yangi Konstitutsiyaning 53-moddasi atrof-muhitni muhofaza qilishni nafaqat davlat, balki har bir fuqaroning ham burchi sifatida belgilaydi.

Shunga qaramay, O'zbekistonda ekologik huquqlarni sudda himoya qilish amaliyoti hali yetarlicha rivojlanmagan. Davlat organlariga qarshi ekologik da'vo qo'zg'atish protsessual jihatdan qiyin va amalda kam uchraydi. Jamoat tashkilotlarining ekologik huquqbuzarliklar bo'yicha sudga murojaat qilish amaliyotlari yetarlicha shakllanmagan.

Muhim ijobiy qadam sifatida shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston 2025-yil mart oyida Orhus konvensiyasini ratifikatsiya qildi (UzA, 2025). Ushbu konvensiya uchta asosiy tamoyilga — ekologik axborot olish, qarorlar qabul qilish jarayonida jamoat ishtiroki va ekologik masalalarda sudga murojaat qilish huquqiga asoslanadi. Endi asosiy vazifa bu tamoyillarni milliy qonunchilikka to'liq tatbiq etish va amalda ishlaydigan mexanizmlarni shakllantirishdan iborat.

6.3. Yashil iqtisodiyot siyosati

O'zbekiston so'nggi yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha muhim qadamlar qo'ydi. 2019-yilda Prezidentning yashil iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. 2021-yilda O'zbekiston Yashil iqtisodiyot va iqlim siyosati bo'yicha Milliy Strategiyasini tasdiqladi. Ushbu Strategiya 2030-yilga qadar qayta tiklanadigan energiyaning ulushini 25% ga yetkazish maqsadini belgiladi.

O'zbekiston 2022-yilda yangilangan milliy iqlim maqsadlari NDCning (Nationally Determined Contribution) Parij bitimi doirasida BMT Iqlim konvensiyasi kotibiyatiga topshirdi. Yangilangan NDC (Nationally Determined Contribution) 2030-yilga qadar issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yil darajasiga nisbatan 35% ga qisqartirish maqsadini o'z ichiga oladi. Shuningdek, O'zbekiston 2050-yilga qadar iqlim neytralligi maqsadiga erishish bo'yicha uzoq

muddatli strategiya ishlab chiqishni rejalashtirayotganligi haqida xalqaro platformalarda e'lon qildi. Emissiyalar uchun javobgarlik mexanizmlari, korporatsiyalarning ekologik hisobdorligi va yashil moliyalash chora-tadbirlari yanada takomillashib, kelgusida aniq maqsadlarga erishiladi.

6.4. Parij Bitimi majburiyatlari

O'zbekiston Parij bitimini 2021-yil 7-dekabrda ratifikatsiya qildi. Bu esa O'zbekistonga bir qator majburiyatlarni yuklaydi: beshyillik NDC taqdimotlari; iqlim moliyalashuviga hissa qo'shish; iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha milliy reja qabul qilish; shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini ta'minlash.

Huquqiy nuqtai nazaridan, ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar O'zbekiston qonunchiligi tizimida ustunlik kasb etadi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 17-moddasi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini O'zbekiston huquqiy tizimining ajralmas qismi deb belgilaydi. Demak, Parij bitimida belgilangan majburiyatlar da'vo asosi sifatida ishlatilishi mumkin.

Parij bitimining progressiv majburiyatlar mexanizmi O'zbekiston milliy qonunchiligida bosqichma-bosqich aks etirilishi kerak.

7. O'zbekistonda "climate litigation" rivojlantirish istiqbollari

O'zbekistonda iqlim o'zgarishi bo'yicha sud da'volari amaliyotini rivojlantirish bir necha asosiy shart-sharoitlarga bog'liq. Birinchi shart — huquqiy asosni kengaytirish. Hozirgi qonunchilik tizimida ekologik da'volar uchun asoslar mavjud, lekin ular iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlari uchun yetarlicha emas. Atmosfera Havosini Muhofaza qilish to'g'risidagi Qonun (1996), Tabiatni Muhofaza qilish to'g'risidagi Qonun (1992) va Atrof-muhitga ta'sirni baholash to'g'risidagi Qonun (2000) iqlim tematikasini bevosita qamrab olmaydi.

Ikkinchi shart — fuqarolik jamiyati va huquqiy savodxonlik. Iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlari jamoatchilik bosimi va faol fuqarolik jamiyatisiz samarali ishlay olmaydi. O'zbekistonda ekologik huquqbuzarliklarni jamoat ustidan nazorati hali rivojlanish bosqichida. Biroq so'nggi yillarda Ekologik tashkilotlar, partiya faolligi, Yoshlar ekologiya harakati tuzilishi va bir qator nodavlat tashkilotlarning e'lon qilinishi ijobiy tendentsiyalar sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Uchinchi shart — sud tizimini takomillashtirish. Ekologik nizolarni ko'rib chiqishda ixtisoslashgan sudyalari yoki palatalar tuzish, xalqaro iqlim o'zgarishi bo'yicha sud amaliyotini o'rganish va shu sohadagi sudyalari malakasini oshirish zarur. Bundan tashqari, iqtisodiy sudlarda ekologik nizolarning ko'rib chiqilishi va ularda ekspert xulosalarining huquqiy kuchi masalalarini tartibga solish ham muhimdir.

To'rtinchi shart — xalqaro hamkorlik. O'zbekiston BMTning Ekologiya Dasturi (UNEP), Birlashgan Millatlarning Osiyo va Tinch okeani bo'yicha Iqtisodiy va Ijtimoiy komissiyasi (UNESCAP) va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirib, iqlim o'zgarishi bo'yicha sud ishlari sohasidagi xalqaro tajriba va metodologiyalardan foydalanishi mumkin.

Beshinchi shart — korporativ mas'uliyat mexanizmlari. O'zbekistonda neft-gaz, energetika va kimyo sanoati mamlakat ichidagi issiqxona gazi chiqindilarning asosiy qismini tashkil etadi. Ushbu tarmoqlarda ekologik javobgarlikni huquqiy jihatdan kuchaytirish, kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi mas'uliyati (Extended Producer Responsibility) prinsipi asosida yangi mexanizmlar joriy etish iqlim o'zgarishi bo'yicha sud amaliyoti uchun muhim zamin tayyorlaydi.

Amaliy jihatdan qaraganda, O'zbekistonda birinchi bosqichda ekologik audit, majburiy monitoring, hisobdorlik kabi yumshoqroq mexanizmlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Ikkinchi bosqichda esa ixtisoslashgan ekologik sudlar yoki palatalar tuzish, 2025-yilda ratifikatsiya qilingan Orhus konvensiyasi talablarini milliy qonunchilikka to'liq tatbiq etish va fuqarolarning ekologik da'vo qo'zg'atish huquqini mustahkamlash orqali to'liq huquqiy mexanizmni yaratish mumkin.

8. Xulosa

Yuqoridagi tahlillar asosida bir qator xulosalar va taklif-mulohazalar ilgari suriladi.

Birinchi xulosa: Iqlimiy adolat xalqaro miqyosda ekologik boshqaruvni yangi bosqichga ko'taruvchi samarali mexanizmga aylandi. Urgenda, Juliana va Leghari ishlari shundan dalolat beradiki, sudlar nafaqat individual nizolarni hal qilish, balki davlat siyosatini tizimli tarzda o'zgartirish qobiliyatiga ham ega. O'zbekiston uchun bu tajribadan saboq chiqarish strategik zarurat.

Ikkinchi xulosa: O'zbekistonda iqlim muammolari huquqiy himoyani talab qiladigan darajada jiddiy. Suv tanqisligi va iqlim o'zgarishlari oqibatlarini yaqin va uzoq kelajakda O'zbekiston fuqarolarining konstitutsiyaviy ekologik huquqlarini tahdid ostiga qo'yishi mumkin. Biroq mavjud huquqiy mexanizmlar bu muammolarni to'liq qamrab olmaydi.

Uchinchi xulosa: O'zbekiston huquqiy tizimida iqlimiy adolat uchun muayyan asoslar mavjud — Konstitutsiyaning ekologik huquq normalari, ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar, ekologik qonunchilik.

Iqlim o'zgarishlari bo'yicha sud ishlari — climate litigation — zamonaviy ekologik boshqaruvning muhim elementi sifatida shakllanib, xalqaro miqyosda davlat siyosatiga, korporativ xulq-atvoriga va inson huquqlari himoyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Urgenda, Juliana va Leghari kabi tarixiy ishlar ushbu institutning transformativ kuchini isbotladi.

O'zbekiston uchun iqlimiy adolat huquqiy ixtiyoriy tanlov emas, balki obyektiv zaruratdir. Suv resurslari tanqisligi, iqlim o'zgarishlarining qishloq xo'jaligiga ta'siri va Parij bitimidani kelib chiquvchi majburiyatlar — bularning barchasi O'zbekistonda iqlim huquqiy infratuzilmasini jadal rivojlantirishni taqozo etadi.

Ushbu maqolada ko'rib chiqilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, O'zbekiston iqlim o'zgarishi bo'yicha sud amaliyotini rivojlantirish uchun huquqiy, institutsional va siyosiy asoslarga ega. Zarur qadamlar — ixtisoslashgan qonunchilik, mustaqil sud nazorati, faol fuqarolik jamiyati va xalqaro hamkorlik — izchil amalga oshirilsa, O'zbekiston bu sohadagi mintaqaviy liderga aylana oladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Burger, M., & Tigre, M. A. (2023). *Global Climate Litigation Report: 2023 Status Review*. Sabin Center for Climate Change Law & UNEP.
2. Burns, W. C. G. (2021). Climate Change Litigation in the United States: The Juliana Case and Beyond. *Environmental Law Reporter*, 51(3), 10232–10248.
3. BVerfG (Bundesverfassungsgericht). (2021). *Order of the First Senate of 24 March 2021 – 1 BvR 2656/18*. Federal Constitutional Court of Germany.
4. CAIAG (Central Asian Institute for Applied Geosciences). (2019). *Regional Climate Change Assessment for Central Asia*. Bishkek: CAIAG Press.

5. Hoge Raad der Nederlanden (Supreme Court of the Netherlands). (2019). *Judgment of 20 December 2019*, ECLI:NL:HR:2019:2006 (Urgenda Foundation v. State of the Netherlands). <https://uitspraken.rechtspraak.nl/inziendocument?id=ECLI:NL:HR:2019:2007>
6. IPCC. (2021). Summary for Policymakers. In: *Climate Change 2021: The Physical Science Basis*. Contribution of Working Group I to the Sixth Assessment Report. Cambridge University Press, pp. 3–32. <https://doi.org/10.1017/9781009157896.001>
7. IPCC. (2022). *Climate Change 2022: Mitigation of Climate Change*. Contribution of Working Group III to the Sixth Assessment Report. Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/9781009157896>
8. Kelsey, A. (2020). *Juliana v. United States and the Constitutional Right to a Stable Climate*. *Harvard Environmental Law Review*, 44(2), 385–425.
9. Khan, M. S. (2016). The Lahore High Court's Climate Judgment: Setting New Standards for Environmental Rights in Pakistan. *South Asian Journal of Environmental Law*, 4(1), 1–28.
10. Lemos, M. C., & Agrawal, A. (2006). Environmental Governance. *Annual Review of Environment and Resources*, 31, 297–325.
11. Nachmany, M., Fankhauser, S., Setzer, J., & Averchenkova, A. (2017). *Global Trends in Climate Change Legislation and Litigation*. Grantham Research Institute on Climate Change and the Environment, LSE.
12. Peel, J., & Osofsky, H. M. (2015). *Climate Change Litigation: Regulatory Pathways to Cleaner Energy*. Cambridge University Press.
13. Peel, J., & Osofsky, H. M. (2018). A Rights Turn in Climate Change Litigation? *Transnational Environmental Law*, 7(1), 37–67.
14. Rio Deklaratsiyasi. (1992). *Rio Declaration on Environment and Development*. United Nations Conference on Environment and Development. UN Doc. A/CONF.151/26.
15. Setzer, J., & Higham, C. (2021). *Global Trends in Climate Change Litigation: 2021 Snapshot*. Grantham Research Institute on Climate Change and the Environment, London School of Economics.
16. UNFCCC. (2015). *Paris Agreement*. United Nations Framework Convention on Climate Change. FCCC/CP/2015/10/Add.1.
17. van Asselt, H., & Brewer, T. (2021). Addressing Competitiveness and Leakage Concerns in Climate and Energy Policy. *Climate Policy*, 21(3), 278–291.
18. Wewerinke-Singh, M., & Yu, C. (2019). Protecting the Right to Life from Climate Change: Obligations Under Human Rights Law. *Review of European, Comparative and International Environmental Law*, 28(2), 145–158.
19. Wilensky, M. (2015). Climate Change in the Courts: An Assessment of Non-US Climate Litigation. *Duke Environmental Law and Policy Forum*, 26(1), 131–179.
20. World Bank. (2021). *Central Asia Water Resources Management*. Washington, D.C.: The World Bank Group.
21. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrirda)*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.
22. O'zbekiston Respublikasi. (1992). *Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi Qonun*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi.

23. O'zbekiston Respublikasi. (1996). Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi Qonun. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.

24. UzA (O'zbekiston Milliy Axborot Agentligi). (2025, 12-mart). O'zbekiston Orhus konvensiyasiga rasmiy qo'shildi. <https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-orxus-konvenciyasiga-rasman-qoshildi-696901>

